



**XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING
QARORI**

2024-yil 2-aprel

VI-89-39-7-104-K/24

Toyloq tumani

**Tuman hokimining 2024-yil 23-fevraldagi 57-7-104-Q/24-son qarorini tasdiqlash
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi budget Kodeksining 126-moddasi yettinchi xatboshisiga asosan tuman hokimining 2024-yil 23-fevraldagi (57-7-104-Q/24-sonli) qarorini ko'rib chiqib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining sakson to'qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining 2024-yil 23-fevraldagi "Toyloq tumani mahalliy budgetining 2024-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan ajratiladigan mablag'lar to'g'risida"gi 57-7-104-Q/24-son qarori bilan tumanda elektr-energiya ta'minotini yaxshilash uchun sarflangan xarajatlardan yuzaga kelgan ssuda qarzdorligini qoplashda viloyat mahalliy budgetiga qaytarish uchun 1 153 200 (bir milliard bir yuz ellik uch million ikki yuz ming) so'm mablag' tuman hokimligiga ajratilganligi ma'qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Sharipov)ga budgetga tegishli o'zgartirish kiritish, tuman g'aznachilik bo'linmasi (B.Kubayev)ga belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirish, tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.Qurbonov) ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari (J.Xujamurodov) zimmalariga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



YULDASHOVA
MUTABAR
ABDUMANONOVNA